

VALIYEV Botir Nosirovich

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
falsafa fanlari nomzodi, dotsent*

DINIY ONGNING KISHILAR HAYOTIDAGI ROLI

РОЛЬ РЕЛИГИОЗНОГО СОЗНАНИЯ В ЖИЗНИ ЛЮДЕЙ

THE ROLE OF RELIGIOUS CONSCIOUSNESS IN PEOPLE'S LIVES

Annotatsiya: Maqola diniy ongning kundalik va konseptual darajalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda diniy ong, ongning darajalari, kundalik va konseptual diniy ong xususiyatlari, diniy tajriba, diniy e'tiqod va ularning odamlar hayotiga ta'sirini mohiyati va mazmuni, shuningdek diniy ongning jamiyat hayotidagi roli ochib beriladi.

Kalit so'zlari: diniy ong, ong darajasi, kundalik diniy ong, konseptual diniy ong, diniy tajriba, diniy e'tiqod.

Аннотация: Статья посвящена анализу обыденного и концептуального уровней религиозного сознания. В нем раскрывается сущность и содержание религиозного сознания, уровни сознания, особенности обыденного и концептуального религиозного сознания, религиозный опыт, религиозная вера и их влияние в жизнь людей, а также роль религиозного сознания для жизни общества.

Ключевые слова: религиозное сознание, уровень сознания, обыденное религиозное сознание, концептуальное религиозное сознание, религиозный опыт, религиозная вера.

Annotation: The article is devoted to the analysis of everyday and conceptual levels of religious consciousness. It reveals the essence and content of religious consciousness, levels of consciousness, features of ordinary and conceptual religious consciousness, religious experience, religious faith and their influence on people's lives, as well as the role of religious consciousness for the life of society.

Key words: religious consciousness, level of consciousness, everyday religious consciousness, conceptual religious consciousness, religious experience, religious faith.

KIRISH

Inson ongi, shu jumladan diniy ong bilan bog'liq hamma masalalar ilgari ahamiyatli va dolzarb bo'lib kelgan. Diniy ong muammosining dolzarbligi bir qator ob'ektiv omillar ta'sirida yanada kuchayadi. Birinchidan, bu globallashtiruv sharoitida dunyoning barcha mamlakatlarida diniy qadriyatlarning aholi ommasi orasida misli ko'rilmagan tarzda keng tarqalishi bilan bog'lanadi. Biroq, bu faqat diniy ongning kuci hisobigagina engib bo'lmaydigan ko'plab ziddiyatlar bilan birga keladi. Rivojlanishning har qanday darajasida kishilar anglangan va anglanmagan, ma'lum va noma'lum bilimlarning tegishli nisbatiga duch kelishadi. Rivojlangan fan sohasida ularni doimo hisobga olishadi, hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolar bo'yicha ish olib borishadi, yangi muammolar va ularga yondashuvlarni belgilab olishadi. Shu bilan birga, haqiqiy bilimni ehtimoliy, xayoliy bilimdan qat'iy ajratmay talqin etuvchi gipotezalar ham ilgari suriladi. Aksariyat hollarda, bu odamlarning ongi darajasiga bog'liq bo'ladi.

ASOSIY QISM

Diniy ongda, ikki darajani ajratish mumkin: kundalik va konseptual. Kundalik diniy ong - bu odamlarning odatdagiday muhitdagi yashash sharoitlarini aks ettiradigan obrazlar va tasavvurlar, andoza va ko'rsatmalar, mayllar va xayollar, kayfiyatlar va hissiyotlar, odatlar va an'analar majmuidir.

Konseptual darajadagi diniy ong esa, maxsus ishlab chiqilgan tushunchalar, g'oyalar, prinsiplar, ta'limotlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Unda xudo, dunyo va inson haqidagi ta'limotlar, ijtimoiy hayotning asosiy sohalarini diniy dunyoqarash tamoyillariga muvofiq talqin qilish, diniy falsafa qamrab olinadi.

Diniy ong dinning asosiy elementi hisoblanadi. Unga boshqa barcha elementlar shakli va mazmuni bo'yicha bog'liqdir. Diniy ong - ma'lum dinuy g'oyalar va qadriyatlarga aloqadorlik, shuningdek ma'lum din va diniy guruhga taalluqli bo'lishdir. Inson o'zini imon-etiqodli deb hisoblaganidan keyin, o'zini ma'lum bir dinga bog'liq ekanini qayd qilib, men musulmonman yoki men pravoslavman qabilida e'tirof etadi. Biror diniy guruh a'zolari doirasida ham o'zlarini anglash amalga oshadi. Masalan, biz buddistlarmiz, deb shu diniy guruh

a'zolari o'zlarini etirof etadi. Bu esa, diniy identiklikning jamoaviy darajasini namoyon qiladi.

Diniy ong inson hayotining turli davrlarida va turli xil sharoitlarda shakllanishi mumkin. Bu odamning diniy munosabatlar tizimiga qo'shilishi bilan va diniy g'oyalarni, qadriyatlarni, hissiy normalarni idrok etishi orqali sodir bo'ladi. Ko'pincha diniy ong oilaviy muhit (masalan: diniy oilada tarbiyalanish) va mahalliy sharoitlar, shuningdek diniy ustoz-ulamolarning ta'siri va shu kabilar orqali shakllanadi.

Ba'zida inson ichki ruhiy zarba yoki inqiroz oqibatida yuzaga chiqqan hissiy, ruhiy tanlov natijasida imon-e'tiqodga kelishi mumkin. Bu erda ko'p narsa shaxsning individual xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Diniy identiklikka erishish va uni saqlashning bunday jarayoni diniy tajriba deb ataladi. Vaqt o'tishi bilan inson va kishilar guruhining diniy tajribasi dunyoning stereotipik manzarasi, shuningdek, bir guruh a'zolarining boshqa guruh vakillaridan nimasi bilan farq qilishlari va nima uchun o'zlarini musulmon yoki xristian deb hisoblashlari haqidagi tasavvurlar sifatida shakllanadi.

Diniy ongni dindagi yetakchi, belgilovchi element sifatida tan oladigan olimlar orasida ikki xil tendentsiya yaqqol namoyon bo'ladi. Ba'zilar diniy e'tiqodni asosan intellektual hodisa sifatida izohlaydilar. Ushbu yondashuv nuqtai nazaridan din asosan mifologik tizim sifatida ko'riladi. Ushbu yondashuv tarafdorlari odatda diniy ong shakllanishining quyidagi sxemasini chizishadi. Diniy tasavvurlar dastlab hissiy obrazli tasvirlarda namoyon bo'ladi. Obrazli materiallarning manbai bo'lib tabiat, jamiyat va insonning o'zi xizmat qiladi. Ushbu obrazlar negizida esa, tafakkur shakllari, fikr tuzilmalari (tushunchalar, mulohazalar, xulosalar) shakllangan.

Diniy ongda hissiy-obrazlardan mavhum tushunchalarga o'tish shakllari bo'lgan ma'noli obrazlar muhim o'rinni egallaydi. Ushbu obrazlarning mazmuni ertak va afsonalarda o'z ifodasini topadi. Ushbu pozitsiyaning yorqin tarafdorlari - Sh.Dyupi, K.Volney, B.Bauer va dinshunoslikdagi mifologik maktabning boshqa vakillaridir.

Yana boshqalar urg'uni hissiy-irodaviy elementga berishadi. Diniy e'tiqod, ularning fikriga ko'ra, avvalambor diniy kechinmalar, diniy tuyg'ulardir. Bunday yondashuv din psixologiyasi

vakillari (V.Jeyms, Z.Freyd, K.Yung va boshqalar) t'alimotida yorqin namoyon bo'lgan. Shubhasiz, bunday yondashuv oshkora yoki yashirin shaklda maxsus diniy kechinmalar, "diniy tuyg'ular" mavjudligi faktini tan olishni taqozo qiladi.

Biroq, diniy tuyg'ularning o'ziga xos xususiyati nimada, ular insonning boshqa tuyg'ulardan qanday farq qiladi? A.Menning ("Din tarixi" kitobidagi) fikriga ko'ra, diniy kechinmalarining o'ziga xosligini inson ruhiyatining boshqa hech qanday sohalariga - na axloqqa, na estetikaga, alohida olingan boshqa (masalan, qo'rquv, umid kabi) tuyg'ularga - tenglashtirib bo'lmaydi. Aniqliroq, uni ezgulik tuyg'usi sifatida ta'riflash mumkin [1; 41]. Bu yerda ezgulik tuyg'usi xudo oldidagi ehtiromni anglatadi. Shuning uchun, bu tuyg'uning o'ziga xosligi uning yo'naltirilganligi xarakteri, aynan xudoga yo'nalganligi bilan belgilanadi.

Diniy ongning ratsional yoki hissiy-emotsional tomonlari ustuvorligi muammosi, turli darajadagi diniy onglarning o'zaro ta'sirlashuvi haqidagi masalani ko'rib chiqishda, yangi qirra kasb etadi. Gap shundaki, rivojlangan diniy tizimlarda, faylasuflar va sotsiologlar kamida ikkita aniq belgilangan darajani farq qilishadi: kundalik diniy ong va nazariy jihatdan shakllangan, konseptual, kategoriyali diniy ong.

Diniy psixologiya bilan ba'zida tenglashtirib yuboriladigan diniy ong kundalik turmushda diniy e'tiqodni ifoda etadigan va unga xizmat qiladigan obrazlar, tasavvurlar, ko'rsatmalar, kayfiyatlar, his-tuyg'ular, kechinmalar, odatlar, an'analar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Bu darajada diniy e'tiqodning ratsional, hissiy va irodaviy elementlari mavjud bo'ladi, lekin yetakchilik roli hissiy-irodaviy elementga tegishli bo'ladi.

Ongning mazmuni yorqin obrazli shakllarga boy bo'ladi. Shakllanishi xossalari bo'yicha u sezilarli darajada shaxsiy-individual xarakterga ega bo'ladi. Diniy ong konseptual darajada tizimlashgan va kodlashtirilgan ta'limot shaklida mavjud bo'ladi. Bunday diniy ta'limot mazmuni muhin diniy manba va kitoblarda (Qur'on va Injil kabi) umumiy shaklga solingan, diniy tashkilotlar tomonidan o'zgarmas aqidalar, muqaddaslashtirilgan formulalar ko'rinishida doktrina shaklida tasdiqlangan bo'ladi.

Diniy ta'limotning mazmuni maxsus diniy bilimlar sohasida rivojlanadi va asoslanadi. Diniy tajribaga muqaddas matnlar mazmunini (masalan,

ibodatlar) va ma'lum bir diniy an'ananing boshqa ma'noli matnlarini bilish kiradi. Bular dinga va uning tarafdorlari ongiga barqarorlik baxsh etuvchi o'ziga xos shartlar, farzlar namunalaridir.

Diniy nazariy ongdagi birlashtiruvchi asos - bu, bir qator aqida va ilohiyotshunoslikning turli sohalarini o'z ichiga olgan dunyiv ta'limotdir. Din yetarlicha katta nisbiy mustaqillikka ega bo'lib, bu uning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ilm-fan va texnologiyalarning zamonaviy rivojlanishi dinning aqidalari bilan jiddiy ziddiyatlarga ega [2; 37].

Jamiyat va davlat dunyoning ilmiy manzarasini tasavvur qila oladigan ma'lumotli fuqarolarga muhtoj. Shu bilan birga, odamlar ongini zarur axloqiy meyorlar doirasida saqlovchi rolini bajarib kelayotgan din ham hayotdan chuqur o'rin olgan. Din unga e'tiqod qiluvchilarning xatti-harakatlarini ko'p jihatdan belgilab btradi. Zamonaviy fan dinning asosiy aqidalarini rad etishi mumkin. Lekin, din o'zgarib borayotgan voqelikka oson va tezda moslashib boradi. Ongning diniylashganligi saqlanib qolishi sabablaridan biri - asrlar davomida shakllanib rivojlanib kelgan diniy an'analarning barqarorligi hamda odamlar hayotiga chuqur kirganligidir. Bunda inson hayotidagi muhim voqealar (tug'ilish, nikoh to'yi, dafn marosimi) bilan bog'liq bo'lgan diniy marosimlar katta rol o'ynaydi.

Diniy ongning saqlanishi marosim madaniyatining estetik jozibasi bilan, diniy tuyg'ularning hissiyotlarga boyligi bilan, ezgulik va adolatga ishonch tuyg'usi bilan bog'liqdir [3; 92-96]. San'at har doim va hozirda ham diniy qarashlarning o'ziga xos jamlovchisi, saqlovchisi bo'lib kelgan. Diniy tashkilotlar doimo me'morchilikni, rassomchilikni, haykaltaroshlikni, musiqani, she'riyatni, teatrni o'zlariga xizmat qildirishga harakat qilishgan. Bularning barchasi dinning ta'sirini kuchaytirish, e'tiqodni mustahkamlash uchun yo'naltirilgan.

Aksariyat hollarda, hukmron din davlat bilan, siyosiy kuchlar bilan ittifoqchi bo'lib harakat qiladi. Dinning ta'siri saqlanishi va kengayishiga, kishilar qalbi va ongiga yo'l topish uchun harakat qilayotgan diniy tashkilotlarning faoliyati yordam beradi. Bunday hollarda ko'proq moslashuvchan va murakkab usullardan foydalaniladi.

XULOSA

Din konkret-tarixiy hodisadir. Unga bo'lgan ehtiyoj yo'qolgandagina, g'ayritabiyy, ilohiy kuchlarga ishonch va zaruriyatni taqozo etuvchi ijtimoiy munosabatlar yo'q bo'lib ketgandagina, u ham yo'qolishi mumkin. Shubhasiz, jamiyatning diniy ongi, u yoki bu usulda, individual diniy ongning shakllanishiga ta'sir qiladi. Jamiyat va inson o'z evolyutsiyasi davomida, vahshiylik va yovvoyilikni yengib o'tishdek muhim yo'lni bosib o'tdi. Va bugungi sivilizatsiya sharoitda, insonning vijdon erkinligi tamoyili saqlanib kelinmoqda. U xoxlagan diniga e'tiqod qilishi yoki ateizmni tanlashi huquqiga ega, albatta agar, tanlov antisotsial negative oqibatlariga, inson huquqlari va ijtimoiy axloqiy me'yorlarning buzilishiga olib kelmasa. Diniy ong haqidagi fikrlarning yakunida qayd etish lozimki, diniy ong ham boshqa ong shakllari singari, avvalo ijtimoiy ehtiyojlarga javoban kelib chiqdi. Va bu ehtiyoj qanchalik mavjud bo'lib qolsa, din ham shu darajada saqlanib qolaveradi.

ADABIYOTLAR:

1. Мень А. История религии. В 7 томах. - М., 1991. Т.1
2. Яковенко И.А. Основные подходы, принципы и методы исследования религиозного сознания // Общество и право. № 5 (37). – Краснодар: Краснодар. ун-т МВД РФ, 2011.
3. Религиозное сознание как элемент духовной жизни общества // Вестник КазНУ. Серия психологии и социологии. №2 (45). 2013.